



MAXSUS YORDAMGA MUHTOJ BOLALARGA MUSIQA MASHG'ULOTLARI ORQALI TA'LIM BERISH SHART-SHAROITLARI

Muallif: Xomidova Nozimaxon Fayozbekovna¹

Affiliatsiya: Xalqaro Nordik universiteti Maxsus pedagogika yo'naliшining 1-bosqich talabasi¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14409398>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada alohida e'tiborga muhtoj bolalarning har tomonlama taraqqiyoti uchun musiqaviy ta'limga tashkil qilish zarurati haqida so'z yuritildi. Bunda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni jamiyatga moslashuvi, o'z xissiyotlarini ifodalab berishda musiqaning o'rni alohida ko'rsatilgan. Bu jarayonda salmoqli muvaffaqiyatlarga erishish, bilim, mehnat, tajriba, hamkorlikni moddiy va texnikaviy resurslarni talab qilishi ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: Maxsus yordamga muhtoj bolalar, musiqa, ijtimoiylashuv, mas'uliyat, ta'lim-tarbiya, musiqiy asboblar, musiqa tinglash, kuylashga harakat qilish, xotira.

Tarbiyamiz ostidagi yoshlarni hozirgi o'zgaruvchan dunyoda yashash, oqib o'rganish, yaratish va ijod qilishga o'rgatish har bir soha pedagoglarining asosiy maqsadi va muhim vazifasidir.

Hozir men tahsil olayotgan bilim dargohida inklyuziv ta'lim hamda maxsus yordamga muhtoj bolalar bilan ishslash, ularga dars berish ko'nikmalarini o'rganib kelmoqdaman. Shu bilan bir qatorda, bolalar logopedik markazida musiqa yo'naliшinda ish faoliyatimni olib bormoqdaman. Markaz tarbiyalanuvchilari bilan ishslash alohida e'tibor va yondashuvni talab qiladi. Bunday bolalarga kompleks yordam berish, ularning aqlan, jismonan, ruhan rivojlanishiga hissa qo'shish hozirda oldimizga qo'yilgan asosiy maqsadlardan biridir.

Maxsus yordamga muhtoj bolalarning ta'limg-tarbiyasi, rivojlanishi va jamiyatga moslashuv jarayonlarini tashkil etishga har tomonlama, qamrovli yondashuv o'zining ijobjiy natijasini beradi. Bugungi kun talabiga ko'ra fanga oid yangi texnologiyalarni o'zlashtirib borish, bolalarga ta'limg berishda ta'sirchan va samarador usul va uslublardan keng foydalanish, ijodiy ravishda tadbiq etish muhim vazifalarimizdan hisoblanadi.

Bizning tarbiyalanuvchilarimiz orasida odatdagi rivojlanish me'yordan orqada qolgan bolalar mavjud. Mutaxassislarning ko'rsatishicha, rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar quyidagi toifalarga ajratiladi:

1. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar.
2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar.
3. Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar.
4. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar.



5. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar.
6. Harakat-tayanch a'zolarida nuqsoni bo'lgan bolalar.
7. Murakkab nuqsonli bolalar.
8. Autizm tashxisiga ega bo'lgan bolalar.

Bizningcha, alohida e'tiborga muhtoj bolalar uchun musiqa juda katta yordam beradi, chunki u nafaqat ularning hissiy va intellektual rivojlanishiga, balki ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishga ham hissa qo'shadi.

Har qanday bola ona qornidaligidan mumtoz musiqa, ona allasi, tug'ilgach ona va buvilarning aynan unga qaratilgan, ismlari qo'shib aytiladigan alla qo'shiqlarini tinglab katta bo'ladi. Bobokalonimiz, tibbiyat ilmining mashhur olimi Abu Ali ibn Sino ham o'zining "Tib qonunlari" asarida alla bolaga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatib, uni ham jismoniy, ham axloqiy jihatdan to'g'ri rivojlantirishiga e'tibor qaratadi. Jumladan, "... bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi, uni uxlatish uchun odat bo'lgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab, bolaning tanasi bilan badantarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi hosil bo'ladi", - deb yozgan edi [1. – 5.77]

Darhaqiqat, go'dakka musiqa va ohangning ijobiy ta'siri hozirgi zamon ilm-fanida ham o'z isbotini topgan. Hali til-u zabonga ega bo'lmagan go'dakka rivojlantiruvchi ijobiy ta'sir ko'rsatadigan musiqa va allalash, albatta, bizning markazda tarbiyalanayotgan bolalarga ham o'zining samarali ta'sirini ko'rsatishi tabiiy.

Musiqa – bu shunday san'atki, uni so'z bilan ifodalab bo'lmaydi, lekin har bir tirik mavjudotning his-tuyg'ularini o'zida mujassam qila oladi. Buyuk faylasuf Platon ham musiqa to'g'risida shunday fikr yuritgan: "Musiqa – butun olamni ilhomlantiruvchi, ruhingizni ko'rinas qanotlar bilan ta'minlovchi, tasavvuringizni parvoz etishiga ko'maklashuvchi omil. Musiqa bor narsaga hayot va quvonch baxsh etadi. Uni go'zal va ulug'vor narsalarning timsoli deyish mumkin" [2].

Musiqa san'atining juda ham ko'p qirralari, janrlari mavjuddir. Har birining o'ziga yarasha ko'rinishlari bor, har biri ijro uslubi va boy ohangiga ega. Chindan ham, musiqa hayotimizning bir qismidir. Musiqa butun atrofimizni o'rabi turadi va hayotimizning har bir vaqtini mazmunli o'tkizishga yordam beradi.

Musiqa atrof-muhit bilan ijtimoiy aralashuvga kirishishi qiyin bo'lgan bolalarga yangi bir muloqat tili bo'lib xizmat qiladi. Uning ta'siri ko'p qirrali: tinchlantirish, qiziqtirish, hayajonga solish, turli ehtiroslar tug'dirish kabi hususiyatlarga ega. Bolaning ruhiga orom berish, mudragan hissiyotlarini uyg'otish, ohanglar ta'sirchanligining qamroviga kiradi.

Musiqani tinglash jarayonida ruhiy tinchlanish bilan bir qatorda, musiqiy ohanglarni eshitib, tana yordamida turli xil harakatlarni bajarish, ya'ni logoritmika bilan shug'llanish yaxshi samara beradi. Umumiyl matorikasining yaxshi rivojlanishiga imkon beradi. Bular bosh harakatlari, qarsak chalish, usulga mos oyoq tepish kabilardir. Bolalar bu harakatlardan o'ziga ma'qul kelganini tanlab oladi va musiqa tinglash jarayonida qo'llaydi.

Bolalarga moslashgan musiqiy asboblar yordamida ohangga taqlid qilish jarayonida xotirasi, mayda qo'l matorikasi va ohanglarni bir-biridan farqlay olishi rivojlanadi. Tarbiyalanuvchilar musiqiy asboblarni chalish jarayonida o'ng va chap miyasi bir vaqtning o'zida ishlashini, ko'z va barmoqlar harakati uyg'unligini, diqqatni jamlashni

ta'minlab beradi. Bolani rag'batlantirish, xatolarini to'g'rilash muhim o'rinni tutadi. Mazkur usulni amalga oshirish uchun do'mbira, shiqqildoq, qo'ng'iroq, kselafon, surnak, pianino, torli asboblar, hushtaklardan foydalaniladi. Bolaning qiziqish va layoqatlariga qarab, ota-onalarga u yoki bu musiqa asboblari yo'naliishida qo'shimcha ta'limga olishni tavsiya qilish ham mumkin.

Qo'shiqni tinglash jarayonini tashkil qilish uchun bolalarga mos bo'lgan, ommalashgan, qisqa qo'shiqlar tanlab olinadi. Bu qo'shiqlarda ishlatalgan so'zlar bola yoshiga mos, sodda so'zlardan tarkib topgani ma'qul. Qo'shiq tinglash jarayonida so'zlariga mos ravishda qo'l harakatlaridan foydalanish, mimika yordamida xissiyotlarini aks ettirishga o'rgatish mumkin.

Qo'shiqni tinglashdan sekin-asta unga taqlid tarzida kuylash, ohang va so'zlarni eslab qolish va qayta ijro qilishga layoqat beradi. Kuylash jarayoni bolada nutq rivoji, to'g'ri nafas olish ko'nikmalari, artikulyatsion bazasi takomillashuvi, so'z boyligining ortishi uchun xizmat qiladi.

Bolalar o'z ko'nikma va layoqatlarini ijodiy qo'llashi uchun ularga o'z ismlarini yoki tevarak-atrofdagi narsa-buyum nomlarini musiqa ohangiga mos ravishda talaffuz qilish talab etiladi. Bunda bola mazkur vazifaga ijodiy yondashishga o'rganadi.

Misol tariqasida, men ishlayotgan markazga qatnaydigan autizm tashxisi qo'yilgan Temur ismli (5 yosh) bolaning nutqi rivojlanmagan, diqqati tarqoq va taqlid qobilyatlari rivojlanmagan edi. Muntazam ravishda musiqa bilan shug'ullanishimiz davomida bola pianinoda 5 ta kichik musiqiy asarni yoddan chalishni o'rgandi, so'zlarini kuylash va taqlid qilish ko'nikmalari paydo bo'ldi.

Yuqoridagi ta'limiyy-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlar bo'lishi talab qilinadi. Mashg'ulot xonasida kerakli anjomlarning mavjud bo'lishi, innovatsion texnika va texnologiyalardan foydalanish imkoniyatiga tayanish, xavfsizlik choralariga amal qilinishi kerak bo'ladi. Har bir darsdan olingan samarani mustahkamlash uchun ota-onalarning ko'magi va ishtiroki zarur. Bunday hamkorlikni tashkil etish va muttasil davom ettirish har ikki tomonning masalaga jiddiy yondashuvi bilan bog'liq.

Xulosa qilib aytganimizda, maxsus yordamga muhtoj bolalarga musiqa mashg'ulotlari orqali ta'limga berish va bu jarayonda salmoqli muvaffaqiyatlarga erishish, bilim, mehnat, tajriba, hamkorlikni moddiy va texnikaviy resurslarni talab qiladi. Bunda zamon bilan hamqadam va hamnafas bo'lish katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Ibn Sino, Abu Ali. Tib qonunlari. –1-kitob. – T.: A.Qodiriy, 1992. – 304 b.

<https://ru.citaty.net>

Xamidova M.O. Maxsus pedagogika T.; Fan va texnologiyalar, 2018. – 164 b.

Po'latova P.M. Maxsus pedagogika (Oligofrenopedagogika) T.: G'afur G'ulom, 2005. – 224 b.